

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

O‘RINBOYEV ELDORBЕК ABDURASULOVICH

**TAYANCH-HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGAN TALABALARNING
HARAKAT FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

O‘rinboyev Eldorbek Abdurasulovich

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini
takomillashtirish uslubiyati3

Уринбоев Элдорбек Абдурасулович

Совершенствование двигательной активности студентов с нарушением
опорно-двигательного аппарата31

O‘rinboev Eldorbek Abdurasulovich

Improving methods of the motional activity of students with local disabilities ...59

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

O‘RINBOYEV ELDORBЕК ABDURASULOVICH

**TAYANCH-HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGAN TALABALARNING
HARAKAT FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.Phd/Ped 3254 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirjamolov Mexriddin Xayriddinovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Palibayeva Zulfiya Xalmaxanovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 79, 717-27-27, faks.: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “B” bino, 2-qavat, Ilmiy Kengash majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti axborot resurs markazida tanishish mumkin (0042 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.

(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

L.Z.Xolmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d., (PhD), dotsent

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchilar Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda paralimpiya sport musobaqalari yildan-yilga takomillashib, ko‘plab mamlakatlardagi yoshlarning paralimpiya sport turlariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Paralimpiya sport turlari rivojlangan mamlakatlarda tayanch-harakat apparati shikastlangan shaxslarning harakat faolligini oshirishning yangi vositalari va usullarni aniqlash bilan bog‘liq umumiy muammolarni hal qilishga intilishmoqda. Jahon miqiyosida jismoniy tarbiya va sport sohasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, aholi, ayniqsa yosh avlod o‘rtasida sport turlari bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni paralimpiya sport turlariga saralab olishning tizimli mexanizmlarini tashkillashtirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqiyosida imkoniyati cheklangan sportchilarning musobaqa natijalarini o‘rish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi obyektiv ma’lumotlarni tahlil qilish va shu asosda, ularning jismoniy tayyorgarligini turli tomonlarini o‘rganish, paralimpiya sport turlariga tasniflash, musobaqa qoidalarini takomillashtirish bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy sifatlarini hamda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, maxsus mashqlarni rejalashtirish va musobaqa jarayonini boshqarish bo‘yicha amaliyotda bir qator muammolarni o‘rganish bilan bog‘liq keng tavsiyalar berilmoqda. Shu bilan birga, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoliyatini maxsus uskunalar yoradamida takomillashtirish, ularning individual morfofunktsional xususiyatlarini tahlil qilish va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda, individual yonadashuvga asoslangan tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aniq va maqsadli davlat siyosatiga asosan paralimpiya sport turlarini rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni paralimpiya sport turlariga jalb qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. “Paralimpiya harakatini rivojlantirish, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarda sport bilan shug‘ullanish qobiliyatlarini aniqlash va ularni adaptiv (moslashtirilgan), paralimpiya sport turlari bo‘yicha individual mashg‘ulotlarga jalb qilish, xalqaro sport maydonida mamlakat sharafini munosib himoya qilishga qodir bo‘lgan O‘zbekiston paralimpiya terma jamoalari uchun sport zahirasi va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash masalalari bo‘yicha”¹ vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha pedagogik kuzatishlarni olib borish, o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga ratsional yuklamalarni joriy qilish hamda har bir mashqning organizmga ko‘rasatayotgan ta’sirini aniqlash, talabalarning jismoniy imkoniyati cheklanishi nozologiyasi bo‘yicha tabaqalashtirilgan dastur

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" 2021 yil 18 maydagi PQ-5114-son Qarori Lexuz 6-bet

talablarini va bevosita harakat faolligini baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari dolzarbligicha qolmoqda hamda maqsadga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5279-son "Sport tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zahirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonlari, 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son "Paralimpiya harakatini rivojlantirish doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika va fan texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov, nogironlikning ma'lum turida sport mashg'ulotlariga moslashish nazariyasi masalalari bo'yicha, M.V.Devyatova, T.U.Ismoilov imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari bo'yicha, F.R.Umarxodjayev, S.R.Tillayev, L.B.Sobirova boshlang'ich sinf o'quvchilarida qaddi-qomat buzilishining oldini olish va davolovchi jismoniy tarbiya vositalari masalalari bo'yicha, S.Abduxoliqov, N.Tursunov, M.Maxsumov paralimpiya sport turlarini turli nozologik guruhlarga mansub nogironlarda tipik nuqsonlar tavsifini inobatga olgan holda tasniflash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar².

MDH davlatlari olimlaridan G.A.Goryanaya, A.S.Solodkov, I.V.Erkomayshvili, S.A.Korolev, G.G.Jarikova, O.V.Morozova, D.A.Shurbin va A.Sazonovlar tomonidan adaptiv jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga yangi texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Imkoniyati cheklangan sportchilarning harakat sifatlarini rivojlantirishning asosiy omillari S.P.Yevseyev tomonidan tadqiq etilgan³.

² Саломов Р.С., Миржамолов М.Х. Жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг спорт машғулотларига мослашиши. Ўқув қўлланма.: 2014. - Б. 78-85.; Десяткова М.В., Исмоилов Т.У Саломатлигида ўзгариши бўлган шахсларни ҳаёт фаолиятига ижтимоийлашувини тезлаштириш. Ўқув услубий қўлланма 2018. - Б. 8-15.; Умарходжаев Ф.Р., Тиллаев С.Р., Собирова Л.Б. Бошланғич синф ўқувчиларида қадди-қомат бузилишини олдини олиш ва даволаш. Ўқув қўлланма 2019.- Б. 25-27.; Абдухоликов.С, Туреунов.Н., Махсудов .М. Paralimpiya sport turlari tasnifi o'quv qo'llanma / "Future-books" Toshkent 2021. -208 б.

³ Горьяной Г.А «Избавтесъ от остеохондроза», Лыбид, 1991.-80 с.; Солодков А.С. Физическая работоспособность спортсменов и общие принципы и коррекция, 1995. - С. 41-43; Эркомайшвили И.В. Основы теории физической культуры; 2004. 191 с.; Королёв С.А, Жарикова Г.Г. Учебник «Микробиология продовольственных товаров. Санитария и гигиена». М.: изд. центр «Академия», 2005. - С.104-107.; Морозова О.В. Современные проблемы науки и образования. Спортивное питание. 2017. - С. 100-107.; Шубин Д.А. Физическая культура (учебник), 2017.- 610 с.; Сазонов А. Препаративки о здоровье., А.Т.С. 2018. - 352 с.; Евсеев С.П. Теория и организация адаптивной физической культуры М.: Советский спорт, 2019 - 448 с.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari olimlari W.D.Brettschneider, A.Abele, tayanch-harakat apparatining shikastlanishlarining juda ko'p turlarini tabaqalashtirish masalalari bo'yicha, K.Armour va M.Yelling jismoniy sifatlarni rivojlantirishning yosh chegaralari masalalari bo'yicha, E.Balz, B.Crum, H.Arends, T.Benn, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning ilmiy-uslubiy jihatlari bo'yicha, M.Kinali, H.P.Brandl-Bredenbeck va boshqa mutaxassislar sport ko'rsatkichlarini yaxshilab borish masalalari bo'yicha sohaga oid turli izlanishlar olib borishgan.⁴

Shu bilan birga, mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirish uchun ularning anatomik belgilariga qarab mashqlar majmuasini variativ tanlash, ushbu majmuani o'quv-mashg'ulot jarayonida to'g'ri qo'llash va me'yorlarini taqsimlash uslublari o'rganilmagan. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar hamda davlat standartlarida belgilangan talablar mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi va dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining "Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psixofiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish" ilmiy innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarga samarali ta'sir etuvchi mashqlarni tanlab yo'naltirish hisobiga harakat faolligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning morfofunktsional ko'rsatkichlarini aniqlash;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini oshirishda mashqlar me'zonlarini ishlab chiqish;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan harakat fazalari ketma-kedligini takomillashtirish;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning nozologiyasiga qarab maxsus mashqlar majmuini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligida tahsil olayotgan tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning mashg'ulot jarayoni olingan.

⁴ Brettschneider, W-D., 'Psychological outcomes and social benefits of sport involvement and physical activity implications for physical education', in: G. Doll-Tepper & D. Scoretz, Proceedings of The World Summit on Physical Education, Berlin, ICSSPE, 2003. - P. 80-82.; Abele, 'Physical Education and Education through Sport in Latvia', in: G. Klein & K. Hardman, Physical Education and Sport Education in the European Union, Paris, Editions Revue EP. S, (in press) 2004. - P.86-91.; Armour, K. and Yelling, M., 'Continuing Professional Development for Experienced Physical Education Teachers: Towards Effective Provision', Sport, Education and Society, 9 (1), 2004. - P. 90-11; Balz, E., & Neumann, P., Physical Education in Germany', in: U. Puhse & M. Gerber (Eds.), International Comparison of Physical Education, Concept - Problems - Prospects, Aachen, Meyer & Meyer Verlag, 2005. - P.292-309.; Crum, B., and Stegeman, H., 'The State of Physical Education in the Netherlands', in: U. Puhse & M. Gerber (Eds.), International Comparison of Physical Education. Concept - Problems -Prospects, Aachen, Meyer & Meyer Verlag, 2005.- P. 460-471.; Arends, H., Sport Service Punt, unpublished Paper, November 2006. PP.-54-59.; Benn, T., 'Muslim Girls and participation in Physical Education', unpublished paper, November 2006. - P 7-9.; Kinali M, Main M, Eliahoo J, et al Predictive Factors for the Development of Scoliosis. 2006. - 518 p.; Brandl-Bredenbeck, H. P, and Brettschneider, W. D., Societal Trends out of School of School Age Boys and Girls, unpublished Paper, January 2007. - P. 23-31.;

Tadqiqotning predmetini tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy adabiyotlardagi ma’lumotlarni ilmiy-uslubiy o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, antropometriya, BTS G-WALK instrumental usuli, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning o‘rish va rivojlanish imkoniyatlarini tana tuzilishining mustahkamligi ko‘rsatkichlarini kuchli, o‘rtacha, kuchsiz harakatlanishdagi organizm qismlaridagi mutanosibligini turli murakkablikdagi harakatlar asosida aniqlash hisobiga maqsadli mashg‘ulotlarni tanlash samaradorligi oshirilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning yurish fazalarini muvofiqlikda tortuvchi, bazaviy mezosikl asosida harakat faoliyatini fazoviy-vaqt ko‘rsatkichlari orqali mashg‘ulot yuklamalarini anatomik belgilariga qarab mashqning shiddati davomiyligi va dam olish intervallarini me‘yorlashtirish hisobiga organizm tana qismlari uchun mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyati oshirilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakatlanish diapazonidagi fazalarini faol va passiv egiluvchanligini muskul kuchini rivojlantirish bilan bir vaqtda mashg‘ulotga kiritish hisobiga harakat faoliyati takomillashtirilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar mashg‘ulotlarida maxsus mashqlar majmuasiga nogironlik aravachasida o‘tirib kaft, bilak, yelka, gavda mushaklarini egish, burish va cho‘zish statodinamik stretching, yoga mashqlarini kiritish hisobiga qomat buzilishining oldini olish imkoniyati oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tayanch-harakat apparati shikastlangan shaxslarning jismoniy va morfofunktsional tayyorgarligining o‘ziga hos xususiyatlari asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning maxsus harakat tayyorgarligini “BTS G-WALK” uskunasi yordamida laboratoriya sharoitida biomexanik nazorati va tahlil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning o‘quv-mashg‘ulot mazmuni va usullari hamda tabaqalashuviga qaratilgan pedagogik nazoratni tashkil qilish tizimi takomillashtirilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatadigan vosita va usullar ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajribada qo‘llanilgan yondashuv va olingan natijalarning nazariy-uslubiy jihatdan asoslanganligi, adaptiv jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi chet el hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga tayanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo‘llanilganligi, tekshiriluvchilar saylanmasining korrektiligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik metodlar

yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar tayanch-harakat apparatida shikastlanishi bo'lgan talabalarning o'quv mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va o'tkazish, harakat faolligini takomillashtirish muammolariga taalluqli Adaptiv jismoniy tarbiya va sport, Sport pedagogik mahoratini oshirish fanlarining mazmunini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarning mashg'ulotlar jarayoniga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirish uchun mezosikllarda (tortuvchi, ba'zaviy) keltirilgan vosita va usullarni, nozologiyasi bo'yicha tabaqalashtirilgan mashqlarni ishlab chiqish hamda mashg'ulot jarayoniga joriy etilishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning o'sish va rivojlanish imkoniyatlarini tana tuzilishining mustahkamligi ko'rsatkichlarini kuchli, o'rtacha, kuchsiz harakatlanishdagi organizm qismlaridagi mutonosibligini tahlil qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Adaptiv jismoniy tarbiya va sport" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgust 418-sonli buyrug'iga asosan 418-084 raqamli guvohnomasi). Natijada, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faoligi o'rtacha 10% ga oshishga erishilgan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning yurish fazalarini muvofiqlikda tortuvchi, bazaviy mezosikllar asosida harakat faoliyatini fazoviy-vaqt ko'rsatkichlari orqali mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish bo'yicha tayyorlangan taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetini Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi sport pedagogik mahoratini oshirish o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 06-01/06/13/7092-son ma'lumotnomasi). Natijada, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar yurish fazasining muvofiqligi 9-12% ga yaxshilangan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakatlanish diapazonidagi fazalarini faol va passiv muskul kuchini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetini Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi sport pedagogik mahoratini oshirish o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi № 06-01/06/13/7092-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini 10-12% ga oshirish imkonini bergan;

tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar mashg'ulotlarida maxsus mashqlar majmuasiga statodinamik mashqlarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar "Adaptiv jismoniy tarbiya va sport" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgust 418-sonli buyrug'iga asosan 418-084 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarda qomat buzilishining oldini olish imkoniyati 11,3% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqolalar (1 ta xorijiy va 3 ta respublika jurnallarida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, 15 ta rasm, 17 ta jadval, 163 sahifali kompyuter matn, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning o'rganilganlik holati, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va ularning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasini shakllantirish muammolarining o'rganilganlik darajasi, tadqiqotga oid adabiyotlar tahlili, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning individual imkoniyatlari, harakat faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, harakat holatining umumiy tahlili, harakat faolligini takomillashtirishning pedagogik muammolari yoritilgan.

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini oshirish uchun sport mashg'ulotlarida o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning ma'lum jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalar va usullardan foydalanib maxsus mashqlarni dasturlashtirilgan holda shakllantirish tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport sohasini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan ko'plab xorijiy tadqiqotlar tizimli xarakterga ega emasligi, shuning uchun to'plangan bilimlarni tizimlashtirish va uning asosida adaptiv jismoniy tarbiya

va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimida yaxlit yondashuvni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun mehnat qilayotgan yetakchi xorijiy olimlar B.A.Ashmarin, Yu.F.Kuramshin, L.P.Matveyev, N.G.Ozolin, V.N.Platonov pedagogik tajriba va kuzatuvlar orqali sport sohasidagi yuqori natijalarni oshirish uchun o'quv-mashg'ulotlarini yuqori darajada samarali rejalashtirish va tashkil qilinishiga bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tishgan. Lekin mashg'ulotlarni samarali tashkil qilishda individual yondashuv asosida tibbiy belgilariga qarab harakat faolligini takomillashtirish mashqlarni saralashga ahamiyat berilmaganligi kuzatiladi. Paralimpiya sport turlari bo'yicha sport mashg'ulotlarini har doim rekreativ-reabilitatsiya choralari bilan birlashtirish kerak ekanligini S.P.Yevseyev, O.A.Churganov va O.M.Shelkov eng to'g'ri deb hisoblashadi, lekin laboratoriya sharoitida harakatlarni uskuna yordamida baholash orqali ularning faoliyatiga oid mashqlarni tanlash imkoniyatiga e'tibor qaratilmagan.

Mamlakatimiz mutaxassislaridan R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov, N.K.Svetlichnaya kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida imkoniyati cheklangan sportchilarning sportga moslashishi va sport turining rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratilgan, ammo tayanch-harakat apparati shikastlangan shaxslarning harakat faolligini takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

O'quv mashg'ulotlarini o'rganish davomida qilingan xulosalarga kelsak, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning mashg'ulotlarni umumiy tasnifga asosan to'g'ri taqsimlanmasligi nozologiyasiga va sport natijasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Chunki talabalarning harakat faoliyatini takomillashtirish individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ma'lum jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalar va usullardan foydalanish lozimligini ko'rsatadi. Biroq mutaxassislar tomonidan tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning nozologiyasini, jismoniy imkoniyatlari va morfofunktsional tayyorgarligini inobatga olmasdan mashg'ulot yuklamalarning taqsimlashi shug'ullanuvchilar mashg'ulotlarining samarasizligiga olib keladi. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirish bo'yicha o'quv va sport mashg'ulotlarida, anatomik belgilariga qarab tanlangan mashqlarni bajarishlari, yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga qaratilgan tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy qilish lozim. Shuning uchun tabaqalashtirilgan mashg'ulotlarni rejalashtirishda yuqoridagilarni inobatga olish kerak.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va uni tashkil etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida mahalliy va xorijiy, ilmiy hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olimlar va mutaxassislarning fikr-mulohazalari hamda tajribalarini umumlashtirish, tadqiqotni tashkil etish, pedagogik tajribani o'tkazish vaqti va sanasi, joyi aniqlanib, tadqiqot ishtirokchilari soni belgilangan. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning yurish samaradorligining miqdoriy tahlilini (yurishda: qadamlar tezligi, kadamlar uzunligi, tananing tebranishi) “Erasmus Plus” xalqaro loyihasi doirasida BTS «G-WALK» moslamasi yordamida instrumental usulda aniqlash hamda morfofunktsional ko'rsatkichlarini (nafas olish tizimi, o'pkaning

tiriklik sig'imi, yurak qisqarishida yurak ritmi o'zgaruvchanligi) pedagogik tajriba, pedagogik testlash, matematik statistika usullaridan foydalanib aniqlash yo'llari yoritilgan.

Tadqiqotlar uch bosqichda o'tkazilgan. Birinchi bosqichda (2019-2020 y.y.) mavzuga oid me'yoriy hujjatlar, yillik tayyorgarlik dasturlari va o'quv rejalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlillar asosida o'rganilgan. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning sport tayyorgarligi jihatlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar to'plandi. Tahlil asosida o'rganilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari, yetakchi olimlarni fikr-mulohazalari asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot uslublari hamda dastlabki tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ikkinchi bosqichda (2020-2021-y.y.) tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning jismoniy tayyorgarligida individual harakat faolligini takomillashtirish uchun mumkin bo'lgan harakat amallari aniqlangan, sport mashg'ulotlarida xavfsiz bo'lgan vositalar va usullarning hajmini me'yorlash orqali tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar uchun maxsus mashqlar ishlab chiqilgan va tajribalarda asoslangan. Shu bilan birga, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning nozologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular bajarishi mumkin bo'lgan vositalar saralangan va sinovdan o'tkazilgan.

Uchinchi, ya'ni pedagogik tajriba bosqichida (2021/2022-y.y.) O'zDJTSUning Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalaridan 56 nafari tajriba-sinov jarayoniga jalb etildi. Ular yoshi, harakatlanish parametrlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi inobatga olingan holda ikki guruhga – tajriba va nazorat guruhlari ajratildi. Tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan mezosikl (tortuvchi, bazaviy) bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar harakatlarini biomexanik tahlil qilish asosida, ularni takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotlarining yuklamalari taqsimlandi va uning samaradorligi tajriba-sinovlarda isbotlandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida hisoblanib tahlil qilindi, dissertatsiya ishi shakllantirildi va rasmiylashtirildi.

Dissertatsiyaning **“Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar harakat faolligini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot ishtirokchilari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomaning tahliliga ko'ra mashg'ulotlarni tashkil qilishda tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar mashg'ulotlarini rejalashtirish, vosita va uslublaridan foydalanish masalalari bo'yicha ko'plab o'zgartirishlar kiritish kerakligi aniqlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda biz tomondan ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijalari, ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning morfofunktsional ko'rsatkichlari va jismoniy tayyorgarligida ijobiy o'zgarishlar bayon qilingan.

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirishga qaratilgan anatomik belgilariga qarab tabaqalashtirilgan

mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning nozologiyasiga xos bo'lib, tadqiqot boshida nazorat hamda tajriba guruhida "gavda tuzilishi mustahkamligi" ko'rsatkichi kuchsiz ekanligi aniqlangan.

Sport funksional tasnifiga ko'ra: adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni an'anaviy mashg'ulotlar jarayonida o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi. Shu o'rinda talabalarning tana tuzilish mustahkamligi ko'rsatkichi o'z imkoniyatlarini belgilash uchun manfiydan qiymat - 36 qiymat darajasigacha aniqlandi:

- manfiydan -10 oralig'ida bo'lsa – " kuchli",
- 11-25 oralig'ida bo'lsa –"o'rtacha",
- 26-36 oralig'ida bo'lsa – "kuchsiz",
- 36- va undan katta bo'lsa – "kuchsiz" deb baholandi.

Bu ko'rsatkichlar tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning morfofunktsional ko'rsatkichlari o'rganilib, harakat faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning nozologiyasi hisobga olingan holda tahlil qilindi.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonga ko'ra, tana tuzilishining mustahkamligi biz tomonimizdan o'tkazilayotgan tadqiqotga asosan tananing harakatlanishi baholanganda kuchsiz ekanligi, harakatlarni korreksiyalash lozimligi aniqlandi (1-jadvalga qarang). Umumiy o'rganishlar natijasida tajriba guruhiga kiritilgan tayanch-harakat apparati shikastlangan 28 nafar talabadan: oyoq uzunligidagi farq nozologik sinfiga kirgan hamda mushaklarning yuqori tarangligi sinfiga kirgan 3 nafar talaba tana tuzilish mustahkamligi "kuchli" ekanligi, 7 nafari "o'rtacha" darajada, 17 nafari "kuchsiz" ekanligi aniqlandi (1-jadvalga qarang)

Bu ko'rsatkich, doimiy ta'sir ko'rsatib keladigan nozologiyasiga va harakatlanish faoliyatiga bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan, tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning tasnifiga xos bo'lib, tadqiqot boshida nazorat hamda tajriba guruhida "gavda tuzilish mustahkamligi" ko'rsatkichi kuchsiz ekanligi aniqlandi.

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirishga qaratilgan anatomik belgilariga qarab tabaqalashtirilgan mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqildi.

1-jadval

Tajriba guruhida tadqiqot boshida tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarining tana tuzilishining mustahkamligi ko'rsatkichlari (n=28)

№	F.I.Sh.	Bo'yi, (sm)	Vazni, (kg)	Nafas chiqarishda ko'krak qafasi aylanasi	Tana tuzilish mustahkamligi ko'rsatkichi me'yorga nisbatan o'zgarishi	Tana tuzilishi mustahkamligi
1.Mushaklarning past tarangligi (bel-oyoq nogironlik aravachasida)						
1	E.Q.	160	55	72	33	kuchsiz

1-jadval davomi

2	A.N.	154	37	69	48	Kuchsiz
3	A.G.	162	65	80	17	o'rtacha
4	A.S.	172	56	83	33	kuchsiz
5	D.J.	168	60	81	27	kuchsiz
2. Qo'l yoki oyoq bo'g'imlarida harakatlar hajmining cheklanishi (qo'l-oyoq nozologiyasi)						
6	P.J.	170	68	85	17	o'rtacha
7	U.G.	155	37	69	47	kuchsiz
8	A.N.	168	52	68	48	kuchsiz
9	S.L.	174	57	82	35	kuchsiz
10	K.L.	180	75	80	25	o'rtacha
3. Qo'l yoki oyoqlarning kaltalanishi (qo'l-oyoq nozologiyasi)						
11	A.Sh	182	71	81	30	kuchsiz
12	A. U	157	63	79	15	o'rtacha
13	Yo.V	175	57	84	34	kuchsiz
14	Y.T	183	75	78	30	kuchsiz
15	S.A	176	52	82	42	kuchsiz
4. Oyoq uzunligidagi farq (bir oyoq nozologiyasi)						
16	X.N	157	55	85	17	o'rtacha
17	A.U	181	67	78	36	kuchsiz
18	E.M	158	83	84	-9	kuchli
19	A.F	173	73	77	23	kuchsiz
20	K.F	160	66	82	16	o'rtacha
21	I.V	180	82	86	12	o'rtacha
22	E.F	154	70	74	10	kuchli
23	A.T	178	65	81	32	kuchsiz
24	F.A	156	83	84	-10	kuchli
5. Mushaklarning yuqori tarangligi						
25	O.J	157	68	82	7	kuchli
26	I.N	164	52	79	33	kuchsiz
27	T.U	160	53	81	26	kuchsiz
28	I.A	173	62	84	27	kuchsiz

Izoh: Tana tuzilishi mustahkamligini aniqlash uchun insonning bo'y uzunligi (sm) - (tana vazni (kg) + nafas chiqarganda ko'krak qafasi aylanasini (sm) formulasi bilan aniqlangan. Masalan: $160 - (55 + 72) = 160 - 127 = 33$

Dasturda keltirilgan har bir toifalar uchun mashg'ulot vositalari tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning nozologiyasini hisobga olingan holda ishlab chiqildi. Bunda qo'llar va yelka kamari mushaklari, gavda va bo'yin mushaklari, oyoq mushaklari, butun tana mushaklari uchun mashqlar ikki oylik mezosikl (tortuvchi, bazaviy) turlari bo'yicha taqsimlandi.

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarining harakat faolligini takomillashtirishga qaratilgan mezosikl (tortuvchi, bazaviy) mashg'ulot dasturi

№	Mashg'ulot vositalari	Haftalar				kun	Hajm marta
		1-2	3-4	5-6	7-8		
1. Mushaklarning past tarangligi (bel-oyoq nogironlik aravachasida) shaklida mashg'ulot olib borish dasturi							
1	Qo'l va yelka kamari uchun mashqlar:	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
2	Gavda va bo'yin mushaklar uchun mashqlar;	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
3	Butun tana mushaklar uchun mashqlar:	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	6	300
2. Qo'l yoki oyoq bo'g'imlarida harakatlar hajmining cheklanishi shaklida mashg'ulot olib borish dasturi							
1	Qo'l va yelka kamari uchun mashqlar:	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
2	Gavda va bo'yin mushaklar uchun mashqlar;	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	6	300
3	Oyoq mushaklari uchun mashqlar	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
4	Butun tana mushaklar uchun mashqlar:	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
3. Oyoq uzunligidagi farq (bir oyoq nozologiyasi) shaklida mashg'ulot olib borish dasturi							
1	Qo'l va yelka kamari uchun mashqlar:	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
2	Gavda va bo'yin mushaklar uchun mashqlar;	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	1 $\frac{10x2}{10x2}$	2 $\frac{10x3}{10x3}$	6	300
3	Oyoq mushaklari uchun mashqlar	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840
4	Butun tana mushaklar uchun mashqlar:	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	3 $\frac{10x3}{10x3}$	3 $\frac{10x4}{10x4}$	12	840

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirishga qaratilgan mezosikl mashg'ulot dasturi

№	Anatomik belgilariga qarab nozologiyasini hisobga olib maxsus mashqlar	Mashqlar shiddati	Mashqlar davomiligi va dam olish vaqti	Mashqlarning takrolanish soni	Bajarish usullari tashkiliy uslubiy ko'rsatma
1. THAShning mushaklarning past tarangligi (bel-oyoq nogironlik aravachasida) shaklida mashg'ulot olib borish dasturi					
1	<p>Qo'l va yelka kamari uchun mashqlar:</p> <p>1. Qo'lni oldinga, yoqoriga va yon tomongan navbatma – navbat va birin ketin ko'tarish; tayyoqlar va to'ldirma to'plar, sherik qarshiligi bilan bajariladigan mashqlar;</p> <p>2. Qo'llarini bukish va yozish: barmoqlarni va yotgan holda qo'llarni bukish va yozish;</p> <p>3. Qo'llar bilan aylanma harakat qilish: old yoki yon tekislash;</p> <p>4. To'g'ri qo'llar bilan siltanish va keskin siltanish harakatlari: qo'llar oldinga va orqaga;</p> <p>5. Muvozanat saqlab bajariladigan mashqlar: yotib osilish, tayanib yotish, bukigan qo'llarda tayanib turish. 10-20 sek ushlab tirish</p> <p>6. Qo'l va yelka kamari uchun bo'shashtiruvchi mashqlar: ko'llar, barmoqlar, bilak, butun qo'l muskullari uchun mashqlar.</p> <p>tayoqlar va to'ldirma to'plar, sherik hamda rezina bilan mashqlar.</p>	Katta	<p>2-daqiqa mashq: mashqlar orasida 0.2-0.5 daqiqa, seryalar orasida 3 daqiqagacha bajarish</p>	<p>seryalar 2-4 takrorlanish 3-4 marta</p>	<p>Takrorlash metodi: individual, (trener va ikoniyati cheklangan sportchi birgan ishlash mehanizmi)</p>

3-jadval davomi

2	<p>Gavda va bo'yin mushaklari uchun mashqlar;</p> <p>1. Bosh va gavadani orqaga, yon tomonga engashtirish: gimnastika o'ringida o'tirish egilish mashqlari;</p> <p>2. Bosh va gavadani o'ng va chap tomonga burish: Oyoqlarni kerib o'tirgan holda bajariladigan mashqlar. Gimnastika tayog'i bilan bajariladigan mashqlar.</p> <p>3. Bosh va gavda bilan o'ng hamda chap tomonlarga aylanma harakatlar qilish: Qo'llar belda o'tirgan holda gavdan aylantirish mashqlari;</p> <p>4. Tayanib turib gavadani buqish va to'g'rilash mashqlari: Oyoqlarni yotgan, o'tirgan, osilish va tayanish holatlarda ko'tarish mashqlari</p> <p>5. Muvozanatda bajariladigan mashqlar: osilish va tayanishda ushlab tirish mashqlari. 5-15 sek ushlab turish.</p> <p>6. Gavda va bo'yin mushaklari bo'shashtiruvchi mashqlar: oldinga engashib va gavda bo'yin muskullari bo'shashtirish, o'tirgan va yotgan holda tana va bo'yin muskullarini bo'shashtirish mashqlar tayoqlar va to'ldirma to'plar, sherik hamda rezina bilan mashqlar.</p>	<p>Katta Kichikdan Maksimalgacha</p>	<p>0.5-1.5 daq; mashqlar o'rtasida 0.5-1.5 daqiqa, seriyalar orasida 6 daqiqa dam olish Umumiy 30 daqiqa mashg'ulot</p>	<p>bir marta takroriy ishda 10 va undan ortiq 2-4 seriyada 3-4 marta</p>	<p>Takrorlash metodi; Ko'rasatib tushuntirish metodi; individual va guruhli (trener va ota-onalar assistent bilan birgalikda shug'ullanish lar) Aralash metod; Ko'rasatib tushuntirish metodi; guruhli usul, (10 ta sportchiga bitta murabbiy va bitta yordamchi murabbiy) mashqlar, zo'r berib ortib boruvchi;</p>
3	<p>Butun tana mushaklari uchun mashqlar:</p> <p>1. Qo'l harakatlarini gavadani oldinga engashtirish;</p> <p>2. Oldinga engashib ko'llarni orkaga yuqoriga uzatish;</p> <p>3. Tayanib qo'llarni bukish va yozish;</p> <p>4. Tana bilan to'liqsimon harakatlar;</p> <p>5. Chalangcha yotgan holda oldinga yengashish;</p> <p>6. Butun tana muskullarini bo'shashtiruvchi;</p> <p>8. Qomatni kerishtiruvchi mashqlar. tayoqlar va to'ldirma to'plar, sherik hamda rezina bilan mashqlar. Dam olish Aktiv qobiliyatni rivojlantirish mashqlari shakllantirish shaxmat, shashka, hisob kitobi o'yinlar</p>	<p>O'zgaruvchan kichikdan kattagacha</p>	<p>30-daqiqa va undan ortiq; cheklanmagan kayfiyatiga qarab takroriy ish</p>	<p>6-8 marta</p>	<p>Aralash metod; Ko'rasatib tushuntirish metodi; guruhli usul, (10 ta sportchiga bitta murabbiy va bitta yordamchi murabbiy)</p>

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalar uchun alohida mashqlar metodikasi ishlab chiqilib, unda tayanch-harakat apparati shikastlangan mushaklarning past tarangligi (nogironlik aravachasida) nozologiyasi uchun, qo‘l yoki oyoq bo‘g‘imlarida harakatlar hajmining cheklanishida nozologiyasi uchun, oyoq uzunligidagi farq nozologiyasi uchun, qo‘l yoki oyoqlarning kaltaligi nozologiyasi uchun, mushaklarning yuqori tarangligi nozologiyasi uchun mashqlar berilgan (2-3-jadvalga qarang).

Dissertatsiyani **“Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning harakat faolligini takomillashtirishda natijalari tahlili”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida “Erasmus Plus” xalqaro loyihasi doirasida BTS “G-WALK” asbobi yordamida tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning yurish samaradorligini miqdoriy tahlil qilish (qadam tezligi, qadam uzunligi, tana tebranishi) yordamida tajriba va nazorat guruhlarini sinaluvchilarining harakat faolligini ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganildi.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta‘limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning eng muhim jihatlaridan biri sport musobaqalarida erishilgan natija emas, balki insonning harakat faolligi ko‘rsatkichlarini yaxshilashdir. Ushbu harakatlarni bajarish imkoniyatlari tasnifda keltirilgan tayanch-harakat apparati shikastlangan turli xil nozologiyadagi insonlar uchun shakl va mazmunni o‘zgartirib borishni talab qiladi.

Ma‘lum bir harakatlarni bajarishda inson gavdasining ayrim zvenolarini harakatlar amplitudasi bo‘g‘inlarning tuzilishiga, ishlash tezligiga, bog‘lovchi apparat va mushaklarning egiluvchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Bo‘g‘inlar harakatchanligi mushaklarning faol qisqarishi tufayli erishiladigan faol harakatchanlikka va tashqi kuchlar orqali erishiladigan passiv harakatchanlikka bo‘linadi. Ko‘p hollarda faol doimiy harakatchanlik, passiv harakatchanlik esa nisbatan kam qo‘llaniladi. Kundalik ishlarda va sport faoliyatida harakatning maksimal anatomik jihatdan mumkin bo‘lgan amplitudasi odatda umuman foydalanilmay qoladi.

Harakat foydasi nozologiyasiga nisbatan noto‘g‘ri moslashishi haddan tashqari o‘z imkoniyatlarini oshirishga intilish ko‘p hollarda jarohatlanishga sabab bo‘ladi. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijalari “BTS G-WALK” uskunasi turli xil testlar asosida o‘rganildi. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligida tahsil olayotgan talabalarning harakatlanish imkoniyatlari tahlil qilinganda, tadqiqot boshi va tadqiqot oxiridagi natijalari solishtirildi. Bunda, maxsus belgilangan maydon bo‘yicha o‘ng va chap oyoq harakati baholandi. Tajriba va nazorat guruhiga kiritilgan talabalarning tibbiy belgilariga qarab harakat faolligi o‘rganildi.

Tajriba guruhi sinaluvchilarining o‘ng oyoq harakatida yurish sikl davomiyligi tadqiqot boshida $0,95 \pm 0,12$ s. ga va tadqiqot oxirida $1,07 \pm 0,13$ s. ko‘rsatkichni qayd etdi ($P < 0,01$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $0,93 \pm 0,13$ s. va tadqiqot oxirida $1,03 \pm 0,14$ s. ko‘rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), (4-jadvalga qarang). Katta qadamlar uzunligi o‘ng oyoq harakatida tadqiqot boshida $79,12 \pm 6,04\%$ va tadqiqot oxirida $84,03 \pm 5,86\%$ ni qayd etdi ($P < 0,01$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $80,14 \pm 6,31\%$ va tadqiqot oxirida $82,94 \pm 4,78\%$ ni qayd etdi ($P < 0,01$); Oddiy qadam uzunligi o‘ng oyoq harakatida tadqiqot boshida $42,74 \pm 4,46$ sm va tadqiqot oxirida $48,59 \pm 4,84$ sm ko‘rsatkichni qayd etdi ($P < 0,001$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $41,84 \pm 4,04$ sm va tadqiqot oxirida $44,64 \pm 4,06$ sm ko‘rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Turish fazasida o‘ng

oyoq harakati tadqiqot boshida $52,63 \pm 5,56$ s.ga va tadqiqot oxirida $59,86 \pm 5,76$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,001$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $52,93 \pm 5,12$ s.ga va tadqiqot oxirida $56,33 \pm 5,09$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Burilish bosqichida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $33,84 \pm 3,86$ s. va tadqiqot oxirida $38,24 \pm 4,00$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,001$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $32,74 \pm 3,07$ s.ga va tadqiqot oxirida $35,53 \pm 3,04$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,01$); Birinchi qadam fazasidan ikkinchi qadam fazasiga o'tish bosqichida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $9,01 \pm 0,98$ s. ga va tadqiqot oxirida $9,85 \pm 1,00$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,01$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $8,81 \pm 0,89$ s. ga va tadqiqot oxirida $9,37 \pm 0,88$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Bitta qadam bosish to'liq fazasida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $32,38 \pm 3,22$ s.ga va tadqiqot oxirida $36,56 \pm 3,34$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,001$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $32,42 \pm 3,13$ s.ga va tadqiqot oxirida $34,93 \pm 3,00$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,01$); Bosilgan qadamlar soni o'ng oyoqda tadqiqot boshida 9 ta va tadqiqot oxirida 7 tani qayd etdi, chap oyoqda esa tadqiqot boshida 8 ta va tadqiqot oxirida 7 tani qayd etdi.

Nazorat guruhi sinaluvchilarining o'ng oyoq harakatida yurish sikl davomiyligi tadqiqot boshida $0,89 \pm 0,12$ s.ga va tadqiqot oxirida $0,96 \pm 0,11$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $0,86 \pm 0,11$ s.ga va tadqiqot oxirida $0,92 \pm 0,17$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P > 0,05$); Katta qadamlar uzunligi o'ng oyoq harakatida tadqiqot boshida $79,24 \pm 6,44\%$ va tadqiqot oxirida $82,39 \pm 6,13\%$ ni qayd etdi ($P > 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $79,04 \pm 6,13\%$ va tadqiqot oxirida $82,17 \pm 6,12\%$ ni qayd etdi ($P > 0,05$); Oddiy qadam uzunligi o'ng oyoq harakatida tadqiqot boshida $41,74 \pm 4,46$ sm va tadqiqot oxirida $44,43 \pm 4,84$ sm ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $41,68 \pm 3,97$ sm va tadqiqot oxirida $43,95 \pm 3,74$ sm ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Turish fazasida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $52,39 \pm 5,23$ s.ga va tadqiqot oxirida $55,72 \pm 5,22$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $52,21 \pm 4,54$ s.ga va tadqiqot oxirida $54,46 \pm 4,13$ soniya ko'rsatkichni qayd etdi ($P > 0,05$); Burilish bosqichida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $33,53 \pm 2,97$ s.ga va tadqiqot oxirida $35,46 \pm 3,00$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $32,64 \pm 3,34$ s.ga va tadqiqot oxirida $34,65 \pm 3,35$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Birinchi qadam fazasidan ikkinchi qadam fazasiga o'tish bosqichida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $8,65 \pm 0,92$ s.ga va tadqiqot oxirida $9,26 \pm 0,92$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $8,53 \pm 1,00$ s.ga va tadqiqot oxirida $9,04 \pm 0,98$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P > 0,05$); Bitta qadam bosish to'liq fazasida o'ng oyoq harakati tadqiqot boshida $32,12 \pm 2,62$ s.ga va tadqiqot oxirida $33,94 \pm 2,56$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$), chap oyoqda esa tadqiqot boshida $31,84 \pm 2,72$ s.ga va tadqiqot oxirida $34,44 \pm 2,67$ s. ko'rsatkichni qayd etdi ($P < 0,05$); Bosilgan qadamlar soni o'ng oyoqda tadqiqot boshida 9 ta va tadqiqot oxirida 8 tani qayd etdi, chap oyoqda esa tadqiqot boshida 8 ta va tadqiqot oxirida 6 tani qayd etdi.


4-jadval

“BTS G-WALK” uskunasi asosida THA shikastlangan nazorat va tajriba guruhi ishtirokchilarining yurish tahliliy natijalari (n=48)


†

Fazoviy vaqt parametri o'chovi	Taxlii muddati		Qadamlar		Tezlik		Yurish sikli davomiyligi		Katta qadamlar uzunligi % da		Oddiy qadam uzunligi		Turish fazasi		Burrish bosqichi		Birinchi qadam fazadan, ikkinchi qadam fazasiga o'tish bosqichi		Bitta qadam bosish to'liq fazasi		Boshlangan qadamlar soni																					
	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ	τ	σ																		
Tajriba guruhi	O'ng oyoq harakati	5,7	119,60	3,07	1,6	0,1	YM	1,12	84,70	5,00	61,20	38,85	11,45	38,85	9	0,98	32,38	3,22	9	36,56	3,34	7	9	3,22																		
																									T-B	0,95	79,12	6,04	42,74	4,46	52,63	5,56	33,84	3,86	9	0,98	32,38	3,22	9	32,38	3,22	
																									T-O	1,07	84,03	5,86	48,59	4,84	59,86	5,76	38,24	4	9,85	1	36,56	3,34	7	36,56	3,34	
	Chap oyoq harakati	5,7	119,60	3,07	1,6	0,1	T-B	0,93	80,14	6,31	41,84	4,04	52,93	5,12	32,74	3,07	8,81	0,89	32,42	3,13	8	34,93	3	7	3	3,13																
																											T-O	1,03	82,94	4,78	44,64	4,06	56,33	5,09	35,53	3,04	9,37	0,88	34,93	3	34,93	3
